

## IBTIDODAN INTIHOGACHA

Farg'ona viloyati Quva tuman kasb-hunar maktabi  
Tikuvchilik fanlari o'qituvchisi  
Fazliddinova Saidaxon Baxriddinovna

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada inson uchun eng muhum narsalardan biri hunar egallamoqlikni, hunar va kasb so'zlarining izohlari, hunar o'rganish va o'rgatish to'g'risida allomalarimiz o'z asarlarida yozganlar pandu-nasihatlari, qadriyatlarimiz asosi bo'lган o'zbek xalq ertaklarida ham hunar ulug'langanligi, xalqimiz azaldan ma'lum kasb-hunar qilishni inson uchun oliy fazilat deb bilgan va buni g'oyat ulug`laganligi hamda juda ko'p ulug'lar hunarmand bo'lganliklari, hunar ado bo'lmas boylikdir. Toki insoniyat bor ekan, hunarlar bardavom bo'lishi haqida so'z yuritilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** tirikchilik manbai, kasb, hunar, usto zardo'z, muayyan ko'nikma, mahorat.

Inson uchun eng muhum narsalardan biri hunar egallamoq. Har qanday narsaning mohiyatini anglash, jahondagi voqealarning yaxshi yomonini bilib olish, odamlarning qadr-u qiymatini to'g'ri tushunish, olilaning farovon yashashini to'g'ri tashkil qilish, qisqasi, har tomonlama mukammal inson bo'lish uchun ilim va hunar o'rganish zaruriy ehtiyojdir.

**"Hunar "so'zi arabchadan olingan bo'lib, san'at: bilim, ko'nikma, mahorat, ustalik, ma'nolarini anglatadi.** Ushbu so'z bir necha ma'nolarda qo'llanilib, birinchidan, muayyan ko'nikma, mahorat talab qiladigan, tirikchilikning asosiy manbai hisoblanuvchi ish, mashgulot, kasb ma'nolarini o'zida jamlaydi.<sup>1</sup>

**Hunar** – muayyan tayyorgarlik talab etadigan va tirikchilik manbai bo'lgan ijodiy mehnat faoliyati.

**Hunar**-ma'lum darajada mahorat talab etuvchi qo'l mehnati yordamida kichik buyumlar ishlab chiqarish. **Hunar**- ma'lum turdag'i narsa yoki buyumlarni tayyorlash san'atini egallash, tegishli kasb-korining mavjudligi.

**Hunarli**-biror hunarni puxta egallagan shaxs. **Hunarmand**-biror hunar turi bilan shug'ullanuvchi usta (shu sohaning egasi, mutaxassisi).

**Kasb**-ish tajribasi hamda maxsus tayyorgarlik natijasida hosil qilingan amaliy malaka va olingan maxsus nazariy bilimlar sohibi bo'lgan insonning mehnat faoliyati (mashg'uloti) turi, odatda u insonni yashash manbai hisoblanadi.

Hunarmanchilikning ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, savatchilik, kandakorlik, pichoqchilik, misgarlik, sandiqchilik, taqachilik, qulfsozlik, tunukasozlik, kigiz

<sup>1</sup> Узбек тилининг изохли лугати. Т.: «УзМЭ». 5-жилд. 591 б. Б.:561

bosish,suyak o'ymakorligi, etikdo'zlik, toshtaroshlik, to'quvchilik, popopchilik va hokazo turlari bor.

("Kasb" lugatda bir narsaga erishish degani). Bahouddin Naqshband xizmatiga kelgan har bir muriddan:

- Nima kasbing bor? Qo'lingdan nima ish keladi? - deb so'rar, biror hunari bo'limganlarni ortiga qaytarib yuborar ekan.

**Kasb**-kor qilmagan kishi tilanishga qo'l cho'zishi kerak bo'ladi. Tilanchi esa hech qachon (na moddiy, na ma'naviy) boy bo'lmaydi.

Har kimning zari bo'lmasa-da, hunari bo'lsa, dunyoda hech bir qiyinchilik chekmaydi.

Shuning uchun kishi hunar ziynati bilan bezanmog'i lozim. Hunarsiz kishi quruq savlatdir. Quruq savlat qotib turgan suratga o'xshaydi. Qalam garchi ko'p bo'lsa-da , ilm-u hunarni oshkor qilgani uchun azizzdir. Oyna esa go'zallar yuzini ko'rsatgani tufayli qo'lida yuradi.

Hunar o'rganish va o'rgatish to'g'risida allomalarimiz o'z asarlarida juda ko'p yozganlar:

Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir,

Yopiq eshiklarni ochar birma-bir.

Hunar ado bo'lmas boylikdir. U albatta yoshlikdan o'rgatiladi. Doimo yoshlarga bu borada nasihatlar bergenlar. Bir donishmand farzandlariga shunday nasihat qilgan: " Aziz farzadlarim, hunar o'rganinglar, zeroki mol-dunyoga e'tiqod yo'q, oltinkumush safarda xatardir. Qaroqchilar o'g'irlab ketadi. Ammo hunar qaynar buloq, tugamas boylikdir, agar hunarmand molidan mahrum bo'lsa, qayg'usi yo'qdir. Chunki hunar o'zi davlatdir.

Qadriyatlarimiz asosi bo'lgan o'zbek xalq ertaklarida ham hunar ulug'lanadi. Masalan, bir shahzoda hunarmand kishining husn-u malohatda tengsiz, ilm-u zakovatda, hunarda yagona bir qizini yoqtirib qoladi va unga uylanmoqchi bo'ladi. Ammo qiz undan: "Sizning kasbingiz qanday, qanday hunarlarni bilasiz?" - deb so'raydi. Shahzoda esa hech qanday hunar bilmasligini, shahzodalarga hunar egallahning zarurati yo'qligini aytadi. Biroq qiz shahzodalik kasb emasligini, bu orqali inson bir umr ro'zg'or tebratishi mushkulligi, chunki toj-u, taxt, boylik odamga umrbod beriladigan ne'mat emasligini tushuntiradi. Bundan ta'sirlangan shahzoda astoydil hunar o'rganishga kirishadi va bir-biridan chiroqli, bejirim ko'zalar-u xumlar yashashni, ya'ni kulolchilik hunarini o'rganadi. Shu darajaga borib yetadiki, u mamlakatda eng mohir va mashhur kulolga aylanadi. Shahzoda biladiki, dunyoda bilim va hunardan ortiq hech narsa insonni ulug'lik martabasiga olib chiqa olmaydi.

"Temur tuzuklari"da ham "... Agarda kasb-u hunar va ma'rifat ahllaridan bo'lsalar, bundaylarga sultanat korxonalaridan yumush berilsin",-deb bejiz ta'kidlab o'tilmagan. Ulug' mutafakkirimiz Alisher Navoiyning

«Xamsa» asaridan joy olgan «Farhod va Shirin» dostoni misolida oladigan bo'lsak, Farhod garchi o'zi shahzoda, bo'lajak podshoh bo'lishiga qaramay naqqoshlik, me'morchilik, sangtaroshlik hunarlarini mukammal o'rganadi. Shirin yurtiga, ya'ni Armanistonga borganda tog'dan ariq qazimoqchi bo'lib, azob chekayotgan xalqni ko'radi va hech ikkilanib o'tirmay o'ziga o'zi:

*Hunarni asrabon netgumdir oxir,*

*Olib tuproqqamu ketgumdir oxir.*-

deya bel bog'lab, tog'-u toshlarni ko'chirib, kanal qazishga tushadi va bu ishni tez kunda tugatadi. Ayni ezgu ishi bilan arman xalqini suv muammosidan qutqaradi. Yurtga suv kelib, hamma yoq bog'-u bo'stonga aylanadi. Bundan anglaymizki, insonning o'rgangan kasb-hunari, bilim-malakasi el-yurtga, jamiyatga foyda keltirgandagina u haqiqiy ne'matga aylanadi. Aks holda hech kimga foydasi yo'q ilmning, hunarning kimga keragi bor?!

Shu bois ham qadimda ajdodlarimiz o'z farzandlarini ilm-u hunar bobida mahoratl ustozlarga : "Eti sizniki, suyagi bizniki", - deya shogirdlikka bergenlar. O'z baxtini topish uchun o'zga yurtlarga safarga jo'natganlar.

Har bir davlatning buyukligi, tunganmas boyligi farzandlarining ilmli, hunarli bo'lishiga ko'p jihatdan bog'liqidir.

Shoiramiz Uvaysiy hunarmandchilikda ishlatiladigan asboblarga o'z fikrlarini bildirgan, ya'ni chiston yozgan. Adabiyot fanidan bizga ma'lumki, chiston she'riy topishmoq.

*Ikki mahbubni ko'rdim ,*

*Ikkisin kindigi bir.*

*O'qtasiga tushar bo'lsang,*

*Topadursan kasr. (Javob: qaychi )*

### **Barcha kasblar uchun zaruriy odoblar:**

- O'z kasbini haromdan, shubhali mol-mablag'dan pok saqlasin.
- Kasbni mol-dunyo to'plashga sarflamasin.
- Kasbni obro' olish, yaxshi nom chiqarishning sababi, deb bilsin.
- Moli harom odamlar (poraxo'rlar, qaroqchilar, o'g'rilar, qimorbozlar) bilan muomala qilmasin.
- O'z hunariga bee'tiborlik, xato-nuqsonlarga, ayb ishlarga yo'l qo'ymasin, har xil iflosliklar, bulg'anishlardan saqlansin.
- Insof chizig'idan tashqari chiqmasin, mol-matoni tanimaydigan odamlar bilan muomala qilmasin.

(Husayn Voiz Koshifiy)

### **Ulug' allomalar yoshlikdan uch narsani qo'ldan boy berishmagan:**

- Vaqtни
- O'qishni



- Mehnatni

Mehnatsiz mashhurlikka erishib bo'lmaydi. Hunar – mulkdir. Mulkni esa vaqtida egallahash lozim.

O'zbek xalq maqollari chuqur va mukammal mazmunga ega bo'lib, ularda xalqning donoligi, milliy an'analar uzoq yillik hayotiy tajribalar hamda mehnat yakuni mujassam.

Xalqimiz azaldan ma'lum kasb-hunar qilishni inson uchun oliy fazilat deb bilgan va buni g'oyat ulug'lagan. O'z kasbining usta-murabbiylarini behad qadrlagan. Xalqimiz orasida aytib kelinadigan "Hunar - zar, hunarli zargar", "Oltin yerda, hunarli yo'lida qolmas", "Hunari yo'q kishining, mazasi yo'q ishining", "Hunarlida ish bitar, hunarsizda gap", "Hunar bo'lsa qo'lingda, non topilar yo'lingda", "Hunarli xor bo'lmas", "Hunar - hunardan rizqing unar" kabi maqollar ham kasb-hunarning inson taqdirida hal qiluvchi omillardan ekanligini anglaymiz. Kishi har tomonlama o'sishi, kamol topishi uchun yoshligidanoq o'z hayotini, erishayotgan yutuqlarini tahlil qilishga, o'z-o'zini nazorat qilishga o'rganishi, o'ziga nisbatan ko'ngilchanlikka erk bermay, talabchan bo'lishi lozimligi ko'p donolar tomonidan tarixda qayd etilgan.

Yaxshi inson haqida xayol qilganimizda, mehnat hayotning ajralmas bir bo'lagiga aylangan kishi ko'z oldimizda gavdalanadi. Bunday insonlar har kuni, har vaqt o'z ishini bilib qiladigan, maqtanmasdan, kamtarlik qiladigan, bo'sh vaqtidan unumli foydalanadigan bo'ladilar.

Agar ixlos bilan mehnat qilsangiz, siz o'zingizni taniysiz, bir- biringizni taniysiz va Allah taoloni taniysiz. Mehnat - bu ko'zga ko'rina boshlagan muhabbatdir. Agar siz mehr bilan emas, qahr bilan mehnat qilayotgan bo'lsangiz, mehnat qilmay qo'ya qoling. Yaxshisi, siz quvonib, mehnat qiluvchilardan xayr-sadaqa so'raganingiz yaxshiroqdir. Agar hafsalasizlik bilan non yopsangiz, bunday noningiz taxir chiqadi, yegan odam maza qilmaydi.<sup>2</sup>

Juda ko'p ulug'lar hunarmand bo'lганлар. Rivoyat qilishlaricha , eng birinchi usto zardo'z payg'ambarimiz Yusuf alayhissalom bo'lган еканлар. Hazrati Yusuf husnda tengi yo'q yigit bo'lib , shu sababli tuhmatga qolib, zindonga tashlanadi. Payg'ambarimiz zindonda zerikkanlaridan quyoshning zarrin nurlariga o'xshash soch tolalaridan kashta tikib o'rganganlar. Ana shu voqeadan so'ng zardo'zlik kasbi paydo bo'lган deb ta'kidланади.

Payg'ambar hazrati Dovud alayhissalom-temirchi, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) – savdogar, Farobiy-bog'bon, Ahmad Yassaviy-duradgor , Pahlavon Mahmud

<sup>2</sup> Жуброн Халил. Донишманд хикматлари. Т.: "Узбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти". Б.: 43

po'stindo'z va telpakdo'z, Sakkokiy-pichoqchi, Zavqiy-mahsido'z bo'lgan. Xo'ja Bahouddin misgarlik bilan tirikchilik qilgan. Rus olimi Mendeleyev- ajoyib chamadonchi bo'lgan.

Hunar ado bo'lmas boylikdir. Toki insoniyat bor ekan, hunarlar bardavomdir. Axir aytishadi-ku: "Dunyoda bir dona ayol qolsa ham zargarga ish topiladi".

### Foydalangan adabiyotlar

1. Jubron Xalil. Donishmand xikmatlari. T.: "Uzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti". B.: 43
2. Alisher Navoiy, «Xamsa» , T. Yangi asr avlodi 2016 y
3. .Amir Temur "Temur tuzuklari" G'afur G'ulom nomidagi nashriyot uyi, T.1991 y
4. Xosiyatxon Suvonqulova, O'zbek z\xalq maqollari, Adabiyot uchqunlari nashriyoti, T. 2014 y.